

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

FANIDAN

KURS ISHI

Mavzu: Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini
shakllantirish

Bajardi: Qodirova N

Tekshirdi: Arabova M

TOSHKENT-2013

Reja.

Asosiy qism:

1. Vatanparvarlik tarbiyasini berishning pedagogik asoslari.
2. Davlat ramzlari vatanparvarlik tarbiyasi berishning asosiy vositasi sifatida.
3. Vatanparvarlik tarbiyasini berishning shakl va usullari
4. Darsdan tashqari vaqtlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatan tuyg'usini shakllantirish

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Vatanparvarlik tuyg'usi kishining o'z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o'tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san'atiga bo'lgan otashin muhabbatini ifodalaydi.

Qadim zamonlardan buyon xalqning o'z Vataniga muhabbati qo'shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi.

Vatanparvarlik – tug'ma tuyg'u emas. SHuning uchun ham boshlang'ich sinflarda bu tuyg'uni tarbiyalashga muhim o'rin berilgan.

Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot to'g'risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo'ladi.

Vatan - har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka- uka, opa- singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona – Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi.

Inson o'z Vatanida kamol topadi. Qadrlanadi. Hayot maktabini o'taydi. Farovonlik va baxt – saodatga erishadi. Ayniqsa, mustaqillik tufayli O'zbekistonning shon- shuhrati, moddiy va ma'naviy boyligi butun jahonga taraldi. O'zbekiston 100 dan ortiq G'arb va SHarq mamlakatlari bilan iqtisodiy, ma'naviy jihatdan aloqalar o'rnatdi. Vatanimiz o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, kontitutsiyasiga ega. Jahon bo'ylab xilpirab turgan O'zbekiston bayrog'ida xalqimizning ruhi, g'urur- iftixori, qudrati, orzu- intilishlari mujassamlashgan. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan 7 sessiyasida 1991 yil, 18 noyabr kuni tasdiqlangan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan – milliy bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy- madaniy an'analarini o'zaro mujassamlashtiradi.

Vatan so'zi hamisha ona so'zi bilan yonma- yon keladi. Bu shunchaki sifat, odatiy majoz emas. Ona – Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik poydevoriga qurilgan tuzumimiz xislatini ko'ramiz. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli Vatan tarixi moddiy va ma'naviy merosga aylandi. Okean ortidagi mamlakatni birinchi bo'lib kashf etgan Abu Rayhon Beruniy, ne- ne sarkardalar tig' kuchi bilan ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabt etgan Alisher Navoiy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, buyuk matematik al –Xorazmiy, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon axliga mashhur bo'lgan ma'rifatli o'zbek millatining qalbi, aqli, xulqi, bilimi, tili, sarkardorligi bilan hurmat topgan yurtdoshlarimizni butun dunyo biladi,ularga ham Vatan ona o'rnida ona, ota o'rnida ota bo'lgan. SHuning uchun xam ona zamin ona –Vatan, ona yer kabi tushunchalar hayotimizga, ongimizga singib ketgan. Necha yuz yillardan buyon ne –ne ulug' farzandlarni o'z quchog'iga olgan ona Yer, ajdodlarmizga onalik qilgan. Ha, u ota- bobolarmizning onasi bo'lgan. U bizning onamiz va kelajak avlodning onasi bo'lajak.

Vatan sog'inchi, Vatan haqidagi falsafiy fikrlar sharq mutafakkirlaridan biri bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotida ham ilgari surilgan.U o'z Vatanini tashlab ketgan va begona yurtlarda yurganida doimo vatanini qo'msagan.

Toli' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib Xind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bu baytda Vatan diydori sog'inchidagi komil qalbning ruh mushtoqligi ko'rsatilgan. Odam Vatan bilan birlikka erishsa, u nafaqat o'z elining balki,

olamning ehtiromiga sazovor bo'ladi. Bunday kishini esa xalq tushunadi, dunyo taniydi.

Vatan qalbi beg'ubor olam, uni asrab –avaylash har birimizning muqaddas ishimizdir. Vatan! Ne- ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli, fazlu –komili uchun jon fido etgan zamin. El borki, Vatan bor – Vatan borki, el bor. Elsiz Vatan – biyobon. Vatanisiz el – darbadar. SHuning uchun qadimda elim deb Vatanni e'zozlaganlar. Vatan tushunchasi turli zamonlarda turlicha talqin etilgan. Vatan so'zi bugungidek mag'rur jaranglamagan. Jonajon yurtimiz mustaqilligi tufayli Vatan deb atalmish - bu ko'xna zamin yanada chiroy topdi. Butun dunyoga yuz o'girdi.

Haqiqatan ham, tarix o'zbek xalqining hozirgi avlodi zimmasiga g'oyat buyuk, muqaddas bir vazifani yukladi. Bu – Vatanni Vatan qilish burchidir.

Kurs ishining maqsadi – kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish. undan foydalanishning shakl va usullarini asoslab berish.

Kurs ishining–ob'ekti kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish jarayoni.

Kurs ishining– predmeti kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning shakl va yo'llari.

Kurs ishining vazifalari:

1. Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar shakllantirish.
2. Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Kurs ishining tuzilishi. Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

Vatan – har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka – uka, opa- singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi.

Ona- Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi voyaga yetkazadi.

-Tog'lardagi shunqorim - a, alla,
Bog'imdagi bulbulim - a, alla,
Beshikdagi qoplonim - a, alla,
Qo'limdagi botirim - a, alla,
Alla aytib yurayin - a, alla,
Qo'zichog'im bolam - a, alla,
Katta bo'lib jonim – a, alla,
Vatanga sodiq bo'l - a, alla.
Ko'zimning nuri - ya, alla,
Mehr-oqibatli bo'l - a, alla.

O'zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Chunki ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin. O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish va ularda vatanparvarlik haqidagi milliy urf- odatlarimizni shakllantirish zarur. Zero, xalqimizning qadim- qadimdan amal qilib kelayotgan vatan va vatanparvarlik tuyg'ulari ma'naviyatimizning asosidir.

Hadisi shariflarda "Vatanni sevmok imondandir", deb bejiz aytilmagan. Vatanni sevish – vatanparvar bo'lish demakdir. Vatan ma'naviyat va madaniyat, fan, adabiyot va san'at o'chog'i hamda bulog'idir. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylik yo'q. Imon- diyonatdan gap ketganda, avvalo ko'z o'ngimizda moziy gavgdalanadi. Imonni, diyonatni tiklamay turib, istiqloli istiqbolli buyuk Vatanni yarata olmaymiz. Vatan tuyg'usi har kimning qoniga ona allasi, bolalikda eshitgan she'r, qo'shiqlar bilan kiradi. Vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllansa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi. Vatan va vatanparvarlik hissini, millat xissini har bir o'zbek fuqarosi chuqur anglashi, ayniqsa, o'zbekistonlik bo'lganidan, shu yurtga daxldorligidan faxrlanishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" risolasida: "Vatanning har bir asl farzandi o'zini, ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan fahrlanayapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi

ana shu desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz", - deb xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu – ona –Vatan sog'inchi bilan yashaganini juda to'g'ri ta'kidladilar.

Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko'tarilish maqsadi yo'lida intilayotgan zbekiston Vatani – xalq hayoti, turmush tarzi, urf- odatlari, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirmoqda.

Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevishtirish, e'zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o'z hissasini qo'shishga erishish.

Vatanparvarlik - bu ona- Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishish.

Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish.

Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining qadim- qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'xna zaminning tarixini bilishga erishish.

Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab –avaylash va ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatni bilish.

Vatanparvarlik - bu o'z millatiga, ona- yeriga, imoniga sodiqlikdir.

Vatanparvarlik – bu sog'lom kuchlar, sog'lom tafakkur egalari, dini, imoni pokizalidir.

Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash. Vatan taraqqiyoti, milliy obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon –shuxrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lish demakdir.

Vatanparvarlik – bu har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan fidoyiliklari va xalq dardini o'z dardlaridek o'ylab yashash, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishiga hissa qo'shishdir.

Vatanparvarlik – shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. SHuning uchun ham bolalarda vatanparvarlik tuyg'usi

go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi. SHuning uchun g'ar bir insonda yoshligidanoq quyidagilarni mujassamlantirish maqsadga muvofiqdir.

1. Mustaqillik his – tuyg'usini shakllantirish va unga amal qilish.
2. O'zbek milliy g'ururiga sodiqlik.
3. Ko'p millatli O'zbekiston xalqiga do'stlik munosabatlari.
4. Jamiyatni insonparvarlashtirishda o'z xissasini qo'shish.
5. Xar bir yerda tartib – intizomli bo'lish.

Demak, ona yurtga munosib farzand bo'lish uchun namunali axloq – odob bilan o'rnak ko'rsatish, Vatan uchun jon olib, jon berganlarni hamisha yodda tutish, el – yurt manfaati yo'lida mahnatdan qochmsalik tamoyillariga amal qilishdir. CHunki, Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hissi o'zbek millatining qadriyatlaridan chuqur o'rin egallagandir. Vatanni sevish va uning daxlsizligini saqlash uchun shu muborak Vatanni boshiga og'ir kun tushishi shart emsa. Har bir harakatimiz, amalga oshgan, oshmagan niyatlarimiz, kurtak yozayotgan orzu – umidlarimiz, turmushdani achchig' – chuchuk tashvivshlarimiz har kuni, har soniya Vatan taqdiri bilan bog'lanadi. Tabiiyki, Vatanparvarlik mazmunini boyitib boradi. Muqaddas vatanparvarlik tuyg'usi qalbimizda jo'sh urar ekan Vatan biznikidir.

Muqaddas O'zbekistonning madhiyasi, bayrog'i, gerbidagi paxta, bug'doy, xumo qushi, mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb hisoblagan har bir kishining qalbidan chuqur joy olishi va uni asrab –avaylashi shart.

Demak, har bir sog'lom avlodda o'z xalqining an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash kerak. Ana shundagina o'z xalqini, millatlarning butun hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy inson, o'z Vatanining jonkuyari voyaga yetadi. SHunday ekan har bir kishining qalbida o'z vataniga buyuk e'tiqod, olijanob muruvvat his- tuyg'ulari barq urib tursa, bu ajoyib ne'matlarni umrbod ardoqlasa, hayotda, turmush tarzida

qo'llasa, shundagina u sofdil, samimiy va odil fazilatli haqiqiy vatanparvar bo'la oladi.

Vatanparvarlik tuyg'usi uyingning ostonasidan boshlanadi, deydilar, bu – to'g'ri, lekin u boshlangan yerda to'xtab qolsa, milliy mahdudlikka, mahalliyparastlikka aylanib qolishi mumkin. Bil'aks, Ulug' Vatan sari yo'l boshlasa, u seni xalqlar do'stligining go'zal bo'stoniga olib kiradi.

Yashab turgan o'lkangga bo'lgan muhabbating xalqlar do'stligi chashmasining bosh irmog'i bo'lib, bu irmoqlar qo'shilib baynalmilal do'stlikning ulug' ummoniga quyiladi.

Ona –Vatanning go'zal tabiatidan zavqlana bilmagan va uni zebo qilish uchun kurashmagan kishidan vatanparvar chiqmaydi. Chunki uning dilida Vatan ishqiy yo'q.

CHin insonning sevgisi uning Vatanga bo'lgan muhabbati bilan egizak bo'ladi va bu hissiyotlar bir – biridan quvvat oladi.

Yashab turgan o'lkang, oilang, o'qib turgan bilim o'chog'ing bilan faxrlanib yashashga odatlanmog'ing lozim, chunki insondagi vatanparvarlik tuyg'usi ana shulardan boshlanadi.

O'zingdagi barcha fazilatlar uchun avvalo ona –Vatandan va olijanob insonlardan qarzdorsan.

Bizdan Vatanning qudrati avlodning, vatanparvarlik tuyg'usi bilan mutonosib ravishda rivojlanadi.

Vatan va Vatanparvarlik tuyg'usini o'zbek shoiri Furqat shunday ta'riflaydi:

Vatanim bog'iga bir kun mujdai gulyor muqarrar,

CHanim xusniga gulgun chehrai diydor muqarrar.

Tasvir suratini til ila izhor etarg'a,

Bu dilim mulkiga ilhom, misrai ash'or muqarrar.

Vatanparvarlik – fuqarolik madaniyatining muhim me’zoni sifatidagi umumbashariy fazilatlardan biri bo’lib, inson va uning ajdodlari, avlodlarining kindik qoni to’kilgan muqaddas dargohga munosabatini anglatadi.

Vatanning o’zi nima? Vatan bu – xalqning o’tmishi va bugungi kelajagidir. U insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi baxt – saodatga eltuvchi o’choqdir.

“– O’zbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta o’zgarishlar yo’lini ko’rsatuvchi, ko’zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo’lchi yulduz, ishonchli kompasdir”-, degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov. Bu ta’rif vatanparvarlikning, fuqarolikning, fuqarolik jamiyatini barpo qilish, uning kishilarida fuqarolik burchi va mas’uliyati, milliy g’urur va iftixor tuyg’usi kabi fuqarolik madaniyatining tarkibiy qismlarini yoshlardan, avvalo muqaddas ramzlar – Davlat tamg’asi, Davlat bayrog’i, Davlat gimnini hurmat qilishni, ularni iftixor bilan tilga olishni va ularga cheksiz sadoqat bilan qarashni talab etadi.

Qadim zamonlardan boshlab ota- bobolarimiz, momolarimiz tomonidan Vatan, Vatanparvarlik haqida ertak, doston, afsona, rivoyat, maqol, matal, masal, hikoyalar ijod qilinganki, ular bugungi kunda yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalashda, ular ongiga Vatan to’g’risidagi ilk tushunchalarni singdirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bolalar ongiga Vatan to’g’risidagi ilk tushunchalar mana shu xalq og’zaki ijodi janrlari vositasida beriladi. E’tibor bering!

Birovning yurtida bek bulguncha,

Uzingni yurtingda it bul.

Vatan gadosi – kafan gadosi.

Vatani borning baxti bor.

Mexnati borning – taxti bor.

Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg’a, madhiya O’zbekiston xalqlarining shon- sharafi, g’ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o’zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e’zozlash, o’zining qadr- qimmatini, o’z mamlakatida va shaxsan o’ziga bo’lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.

Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon- shuhratini oshirad

O'qitish jarayonida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik texnologiyadan foydalanish o'qituvchilaridan juda ko'p samarali mehnatni talab etadi. Biz kuzatgan Toshkent shahridagi 154, 118, 41, 24 – maktablardagi ilg'or tajribaga ega o'qituvchilar maxorati quyidagi pedagogik texnologiyadan o'z ifodasini topdi:

I. Darsning mazmunidan kelib chiqib, maqsadning aniqligi. Maqsadga ko'ra darsni xilma – xil shakllarda tashkil ettirishi:

1. Ijodiy dars.
2. Ertalik darsi.
3. Bahs.
4. Suhbat.
5. Sayohat darslari
6. Uchrashuvli dars.

II. O'quvchilarni fikrlash va mustaqillikka odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o'yinlar, mushoiralarning qo'llanishi.

III. O'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida tezkor testlar hamda reyting orqali o'quvchilarning bilimini aniqlash kabi pedagogik texnologiyaning yangi shakllaridan foydalanmoqda.

Ayniqsa, o'qituvchining o'z faoliyatiga yangicha yondashishi alohida ahamiyat kasb etadi. Biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik texnologiyadan foydalanilgan o'qish va odobnoma darslari namunalaridan keltiramiz.

DARS MAVZUSI: O'zbekiston Vatanim manim. (Ertalik)

Darsning maqsadi: O'zbekiston mustaqil Vatan ekanligi, O'zbekiston Respublikasining ramzlari va ularning mazmunini ochib berish orqali ona yurtimizga mehr uyg'otish.

Darsning jihozi: O'zbekiston gerbi va bayrog'i, rasmlar, madhiya yozilgan ko'rgazmali qurol, O'zbekiston xaritasi, allomalar rasmlari.

Darsning borishi: - Bolajonlar!

Bugun biz “O‘zbekiston Vatanim manim” degan mavzuda dars o‘tamiz. Bu darsda biz O‘zbekiston hududidagi muxtor jumxuriyat va viloyatlar bilan tanishamiz. O‘zbekistonning madhiyasi, bayrog‘i, gerbi haqida suhbatlashamiz.

O‘zbekistonning buyuk allomalari haqida qisqa to‘xtalib o‘tamiz. Madhiyani yoddan aytamiz. Gerb va bayroq haqida yodlagan she‘rlarimizni qo‘shiq qilib aytamiz.

Dars madhiyani kuylashdan boshlandi. Madhiya kuylab bo‘lingach, uning mazmuni tahlil qilindi, so‘ngra dars savol – javob bilan davom ettirildi.

- Vatan nima?

- Vatan biz tug‘ilib o‘sgan uyimiz, mahallamiz, tumanimiz, shahriimiz va buyuk diyorimiz.

- Siz qaysi Respublikada yashaysiz?

- O‘zbekiston Respublikasida yashayman.

- O‘zbekistonning poytaxti qaysi shahar?

- O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahri.

- Toshkentda necha xil millat vakillari yashaydi?

- Toshkentda yuzdan ortiq millat vakillari yashaydi.

- Toshkentda qanyaa kishi yashaydi?

- Ikki milliondan ortiq kishi yashaydi.

- Toshkent qanday shahar?

- Toshkent go‘zal shahar.

- O‘zbekistonning qanday shaharlarini bilasiz?

- Buxoro, Samarqand, Xiva,. SHahrisabz, Termiz, Andijon, Namangan, Qarshi kabi shaharlarni bilamiz (xotiradan ko‘tariladi).

- O‘zbekistonda nechta viloyat bor?

- 12 ta

Hamma birgalikda nomlaydi: Toshkent, Namangan, Andijon,... Buxoro, Samarqand, Farg‘ona,. Xorazm, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax,. Qashqadaryo,. Surxondaryo .

- O‘zbekistonda kimlar yashaydi?

- O'zbekistonda ko'proq o'zbeklar yashaydi, shuning uchun O'zbekiston deyiladi.

- "O'zbekim" she'ri yoddan aytiriladi.

- O'zbek allomalaridan kimlarni bilasiz?

- Al – Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, AbuAli ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Boburlarni bilamiz.

- Aziz bolajonlar! Mana shunday bag'ri keng, yeri oltin bo'lgan, buyuk allomalarni voyaga yetkazgan O'zbekiston mana mustaqil bo'ldi. Mustaqil O'zbekiston o'zining madhiyasiga, gerbiga, bayrog'iga ega bo'ldi. Biz bugun gerbda nimalar tasvirlanganini o'qiymiz va shunga mos she'r yodlaymiz. Gerb haqida berilgan matnni o'qituvchi o'qib berdi. So'ngra she'r yodlatildi. Har bir o'quvchining partasiga gerb rasmi qo'yildi.

Gerbimizda tog'lar bor,

Daryolar bor, bog'lar bor.

So'l tomoni bug'doyzor.

O'ng tomoni paxtazor.

CHambarakka o'ralgan,

Vodiy uzra quyosh bor.

Xurligimizning ramzi

Xumo degan qushi bor.

Bayrog'i bor,.. gerbi bor,

Erksevar O'zbekiston.

Madhiyangni kuylayman,

Jonajon O'zbekiston.

Gerb rasm asosida tahlil qilindi. So'ngra har bir o'quvchining partasida turgan bayroqni qo'llariga oldilar va bayroq tahlil qilindi. Bayroq haqida ham she'r yod olindi:

Bayrog'imda moviy rang

Samodan berar darak.

Oq rangiga doimo
Yaxshilikdir mushtarak.
Yashil rangi hayotdir
Ham yashnagan tabiat.
Qip – qizil chizig’ida
Yashnagay yaxshi niyat.
Osmonda to’la yulduzlar
Bayrog’imizda belgi.
Oy- istiqlol nishoni
Mustaqillikka belgi.

Gerb va bayroq yuzasidan savol – javob o’tkazildi.

- Gerbning o’ng tomonida nimalar tasvirlangan?
- O’ng tomonida bug’doy boshog’i tasvirlangan.
- CHap tomondachi?
- Paxta tolalari.
- Yana nimalar tasvirlangan?
- Gerbda tog’lar, vodiylar, nur sohib turgan quyosh ham tasvirlangan.
- Gerbning o’rtasidachi?
- Gerbning o’rtasida qanotini yozib turgan xurligimizning ramzi - xumo qushi tasvirlangan.

Gerbdan so’ng bayroq ham shu tariqa tasvirlab o’tildi. Dars yakunida o’qituvchi video magnitofon orqali O’zbekistondagi shaharlarning tasvirini ko’rsatdi.

Yakkasaroy tumani 118-maktabning boshlang’iya sinf o’qituvchisi Quvvatova Gulnoraning odobnoma fanidan o’tkazgan bir soatlik dars namunasini keltiramiz:

MAVZU: Vatanni sevmoq iymondandir

Darsning maqsadi: O’qkvchilarning o’z ona vatanlari O’zbekiston haqidagi bilim, ko’nikmalarini shakllantirish. O’quvchilar qalbida o’z Vataniga,

xalqiga muhabbat uyg'otish. Milliy urf – odatlar, qadriyatlarni e'zozlash tuyg'usini uyg'otish.

Darsning jihozlanishi: Davlat bayrog'i, gerb, plakat va allomalar portiretlari. Mavzuga oid fotosuratlar, adabiyotlar, albomlar.

Kerakli asos yaratiladi. Tarqatma materiallar tayyorlash. Yuqoridagi mavzu bo'yicha mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari maqsadida oldindan o'quvchilarga adabiyotlar ro'yxati beriladi.

O'qituvchi o'quvchilarni olti kishidan jamlab, oltita guruhga bo'ldi. Bunda o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni jamini 1 dan 6 gacha bo'lgan raqamlar bilan, bir boshdan sanab chiqdi va shu orqali sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lib oldi.

Masalan:

1 – raqamlar - 1 - guruh

2 - raqamlar - 2 - guruh

3 - raqamlar - 3 - guruh

4 - raqamlar - 4 - guruh

5 - raqamlar - 5 - guruh

6 - raqamlar - 6 - guruh

O'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, olgandan so'ng, o'quvchilarga mavzu bo'yicha qisqa, mazmunli yo'llanma – ko'rsatma berdi hamda oldindan tayyorlangan tarqatma savollarini guruhlarga tarqatib chiqdi. Tarqatma savollar taxminan quyidagicha: -

- O'z uyim – o'lan to'shagim", "O'zga yurtning podshosi bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l", "Bulbul chamanni sevar, odam vatanni sevar" hikmatlarida qanday ma'no yashiringan?

- Ona Vatanni mahd etuvchi qanday asar – she'rlarni bilasiz?

- O'zbekiston o'zining nimalari bilan olamga tanilgan?

- Vatan deganda siz nimani tushunasiz?

- Sizning vavtaningiz qaer? Nima uchun uni sevasiz?

- Vatan shon shuxratini ko'tarish uchun nimalar qildingiz va nimalar qilmoqchisiz?

- Vatan, ona yurt oldidagi burchni siz qanday tushunasiz?

Tarqatma savollar guruhlariga tarqatilgandan so'ng, har bir guruhda berilgan savollar yuzasidan fikr almashuv hamda bahs – munozara orqali javoblar tayyorlana boshlanadi. Bunda har bir guruh o'z guruhi uchun yetakchi va kotib saylaydi. Saylangan kotib o'z navbatida guruh qatnashchilari tomonidan aytilgan to'g'ri javoblarni yozdi. Yetakchi esa, guruh ishini faollashtirdi.

Fikr almashuv hamda bahs munozara uchun ajratilgan vaqt poyoniga yetgandan so'ng, har bir guruh yetakchisi navbatma – navbat berilgan tarqatma savollar yuzasidan so'zga chiqdi. boshqa guruhlar tomonidan berilgan qo'shimcha savollarga javob berdi. (Guruh a'zolari bilan hamkorlikda). Dars yakunida vazifani qaysi guruh a'zolari yoritib bera olganliklari muhokama qilindi, baholandi va mukofatlandi.

Mavzu: «Sog'lom avlod orzulari»

Tantana maktab zalida o'tkaziladi. Sahna milliy ana'nalariga xos bezatilgan. O'quvchilar musiqa sadolari ostida sahnaga chiqadilar.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum aziz, mehribon ustozlar va hurmatli ot-onalar!

2-boshlovchi: Xush kelibsiz mehmonlar

Assalom sizga,
Tabarruk insonlar
Ming ta'zim sizga
Yana bir ta'zim
Dildan ehtirom,
Mo'tabar murabbiy,
Sizga ming salom

1-boshlovchi:

Assalom, mustaqil O'zbekistonim!

Assalom, qudratli, nurli bo'stonim.

Sog'lom farzandlaring muborak bo'lsin!

Bizdek farzandlaring doim bor bo'lsin.

2-boshlovchi: Aziz mehmonlar! Bugungi kechamizning nomi «Sog'lom avlodning – sog'lom orzulari». Kechamiz orqali olgan bilimlarimizni namoyish etamiz. Marhamat tamosha qiling.

O'quvchi: Biz sinfda anchamiz

Lekin zo'r sinfchamiz

Bo'sh kelmaymiz darslarda,

Biz beshchimiz, to'rtchimiz

Hamma: A'lochi o'quvchimiz

«**Sinfimiz**» qo'shig'i ijro etiladi.

1-boshlovchi: O'tgan yillarimizni birma-bir eslab ko'raylik-chi. SHu yillarda nimalarni ko'rgandik. Aytishadi-ku «Yoshlikda o'rgangan bilim ismga o'yilgan naqsh» kabidir.

2-boshlovchi: Avvalambor Vatanni sevishga o'rgandik. Vatan bu insonning qoni to'kilgan joyidir. Vatan avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz yashab o'tgan, biz tavallud topib ulg'aygan, hayot kechirayotgan diyorumizdir.

Barcha nelarga javob izlaymiz,

Olam sirlarini yechamiz albat,

Ilmu-ma'rifatla bo'lmoq istaymiz

Bizni Vatan kutar, buyuk kelajak

«**Vatanjonim**» qo'shig'i ijro etiladi

O'quvchi:

Yurtim senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo

SHoiralar bor o'z yurtin butun

Olam aro atagan tanho

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq

Tomonida kumush diyori

Bir o'lka bor dunyoda biroq

Bitilmagan dostonidir bori

Faqat onsiz qalamim manim,

O'zbekiston Vatanim manim
Tamg'a, bayroq ko'targan o'quvchilar sahnag chiqadi.
Bayrog'imda yulduzlar bor, oylar bor,
Yashil rangda yashnab turgan joylar bor
Oqligida oppoq tilak, o'ylar bor,
Xilpiragan sayin ko'zim quvnaydi,
Yurtimizni dadil log'a boshlaydi
Tamg'amiz bor juda ko'rkam,
Yashnab turar xuddi ko'klam
Bir yon paxta, bir yon bug'doy
Vatan bizga aziz makon
Ko'rganingiz ikki daryo
Ana Amu va sirdaryo
O'rtadagi xumo go'zal,
Baxt timsoli erur azal
Oyu, yulduz parvonadir

Hamma: O'zbekiston yagonadir.

1-o'quvchi: Oilada eng mo''tabar zot,
Farzandiga u baxt va najot
Tursin endi turmushga hayot
O'zbekimning go'zal ayoli

2-o'quvchi: Gul yuziga yarashar holi,
Doim boshda turar ro'moli
Farzandida baxti, iqboli
O'zbekimning go'zal ayoli

3-o'quvchi: f

Farishtadir har qilgan ishi,
Yo'q farzanddan o'zga tashvishi
Bu dunyoda eng ulug' kishi
O'zbeginning go'zal ayoli

4-o'quvchi:

Qizi bor uyning fayzi bo'lak, deydilar
Uyimizda o'g'il yo'q deb o'ksinmang,
Tog' bo'lmasa, qir ham tirkak deydilar
Elning baxti botirlarga yoz bo'lsin,
SHahnozalar, Faridalar bor bo'lsin!

5-o'quvchi:

Islom bobom ta'kidlab,
Yilni bizga atadi
Sog' bo'lsin deb nabiram
Onamni ardoqladi

6-o'quvchi:

Onam sog' bo'lsa doim
Men o'sgayman salomat
Yurtim tinch erur, qarang,
Sog'lom avlod hur hayot

7-o'quvchi:

Elim gullab yashnasin
Onalar sog'lom bo'lsin,
Onajonlar baxtiga
Farzandlar omon bo'lsin!

8-o'quvchi:

Yo'l boshchimiz orzu qilgan
Yurtda o'ynab kulaylik
Vatanimiz koriga
Sog'lom avlod bo'laylik!

«CHak-chak» raqsi ijro etiladi

Tanbur nolasi eshitiladi. Sahnaga buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Ulug'bek, Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, CHo'lpon siymosida o'quvchilar paydo bo'lishadi.

O'quvchi: Ajdodlarimiz – faxrimiz. Bizning Vatan botirlar vatani, SHiroq, Jaloliddin Manguberdi kabi botirlar vatanidir.

Amir Temur:

Men kim, mulki Turonman,
Amiru Turkistonman
O'z yurtimni moliquru
jahon qilgan insonman
O'tsa hamki asrlar
Qadrimga yetdi avlod
Tanitib jahon ichra
Pok ruhimni etdi shod

O'quvchi:

Siz Amirsiz, Siz Temursiz, jahongir sulton
Imondirsiz, vijdondirsiz, siz aziz inson,
Qalblararo ko'tarmoqda ruhingiz isyon,
Sizday mard zot tug'lsa deb, umidvor jahon,
Temur bobo, nomingizni yod etajakmiz
Olamaro ruhingizni shod etajakmiz.

1-o'quvchi:

Al-Buxoriy, At-Termiziy hazrat bizga,
Ulug'beku, Al-Farg'oniy savlat bizga,
Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!

2-o'quvchi:

Yurtning do'stiga ochiq bag'ri bag'rimizdir,
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,
Navoiyning turkiy tili faxrimizdir.
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!
Ajdodlarimiz ta'zim bajo aylab, sahnadan chiqib ketishadi.

1-boshlovchi: Ibn Sino bobo ushalar davo.

Hom suv ichma, sog'liqdan kechma
Eb bo'lgach ovqat, yugurma faqat
Ko'p dardga asos, shamolash halos
Badantarbiya, kuch etar hadya
Kim harakatda sog'lom albatta

Sahnaga sport musiqalari ostida qatnashadigan o'quvchilar chiqadilar.

- Biz karate bo'yicha jahon chempioni bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini
yanada yuqori ko'tarmoqchimiz.

Mashqlar bajarib ko'rsatadilar.

2-boshlovchi: Biz bir qator fanlarni o'rganib savodxon bo'ldik.

1-o'quvchi:

Matematika har yerda kerak,
Uni bilish uchun o'qish ham kerak.
Ko'paytira olmasang ikkini uchga
O'rganganlaring chiqadi kuchga

2-o'quvchi:

O'zbek tilim jonu dilim

CHunki bu til – ona tilim
Ega, kesim, ot, sifat, fe'l
Gap tahlilin o'rgandim men

3-o'quvchi:

Musiqa darsi biz uchun
Eng quvonchli dars edi
CHunki bizni san'atga
Ustozim olib kirdi

Bir qancha o'quvchilar «Ulug' zot, Ustoz» degan mazmunda she'rlar o'qishadi. Yana bir qanchalari «Jannat onalar oyog'i ostidadir» mazmunida o'z onalarini she'riy taranum etishadi. SHo'x kuylar yangraydi. Ustozlar bilan o'quvchilar raqsga tushishadi. Tadbir so'ngida 4-sinf o'quvchilarining orzulari magnitafon orqali yangraydi.

Biz yangi asrda yashab, kompyuterlar bilan tillashadilar, manaman degan xorijiy tadbirkorlar bilan bellashadilar bilimdonlar bo'lib yetishamiz.

MAVZU: «VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR»

Ertangi kunning egalari bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash eng dolzarb masaladir. CHunki vatan kelajagani yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuning uchun kelajak avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash ishi Prezidentimiz va davlatimiz rahbariyatining olib borayotgan ishlarida eng muhim vazifa bo'lib turibdi.

Yosh avlodni Uzbekistonimiz tarixi, uning boy madaniy me'rosi, respublikamiz ramzlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, shunday Vatanda yashashdan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish bizning sharaflı burchimizdir. Buning uchun har bir darsda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yordam beruvchi omillardan mohirona foydalanish, shaxsni o'zligini anglashga, xalq baxt-saodati uchun kurashuvchi qilib tarbiyalash, ularni halol mehnatga o'rgatish darkor.

«*Vatanni sevmok iymondandir*» mavzusidagi ertalikning maqsadi ham, axamiyati ham Vatan tuyg'usini muqaddasligini anikdashga yo'naltirilgan ertalikni o'tkazish uchun maktab saxnasi chiroyli qilib bezatiladi. O'zbekistonning davlat bayrogi, gerbi, saxna to'riga quyiladi. Saxnadan O'zbekistonimiz guzal tabiati aks ettirilgan rasmlar, yetishtirilgan noz-ne'matlar o'rin oladi.

Ertalik o'kituvchining kirish so'zi bilan ochiladi:

- Ona vatanimiz - xur O'zbekiston! Istiqlof tufayli ochadi jamol
Insonlar dili g'urur va iymon, mehr oqibatda topmokda kamol. Saxnaga
o'zga sayyoraliklarning fazoviy kemasi chirokdarini uchirib, yondirib keladi va
to'xtaydi.

Undan ovoz eshitiladi:

-Men - Mars! Men - Mars Meni eshitayapsizmi? Kemaning kuvvat olish
qismi ishlamay qoldi. Men bir notanish sayyoraga qo'nishga majburman.

Kemadan ikki kishi tushib keladi. Ular saxnadagi narsalarni, davradagi
odamlarni ko'rib, xayron bo'ladilar.

1-mehmon: Bu qaysi sayyora?

Olamning qaysi nuqtasi?

Nomi nedur?

Unda kimlar yashaydi?

O'quvchi: Bu sayyora, Ona yerdir.

Er va inson do'stlashgan.

Jannat kabi go'zal bu yurt,

Nomin aytadi sen eshit.

O'quvchilar jonli harflar bilan «**O'ZBEKISTON**» so'zini hosil qilishga
kirishadilar:

O - O'zligimni topdi o'zbek sunbularning kunida,

3 - Zamon silsilasi qaytaraolmas maqsaddan.

B - Baht-saodat kelar albat, ahil bo'lsak, bizlarga

E - Yetuklikka intilamiz insoniylik burchimiz

K - Kamolat, ulug'lik tomon intilar xalkim.

I - Insonlar orzusi ezgulik, axir.

S - Sabr-toqat, iymon bulsa-da yo'ldosh,

T - Tinch o'tar inson umri, baht unga doim yuldosh.

O - Orzu niyatlarimiz: tinch bo'lsin butun[^] jaxon,

N - Nomi jaxonda jaranglar ona yurt - O'zbekiston ! ! !

2-mehmon: Ofarin, ofarin! Doimo bulsin omon,

Yurtingiz va xalqingiz doimo bo'lsin omon.

Mehmon:

Bu ne shodiyona, kanday tantan,

Nega bunda barcha odam jamuljam?

O'quvchi:

Yurtimizda bayramlar ko'p, to'ylar ko'p,

Bag'ri kenglik, mehmondo'stlik xalqimizga xos

Mustaqil O'zbekiston madhini kuylash,

Dilimizga nur, kalbimizga zur kuvonch.

Mehmon:

Vataningiz ancha issiq,
Yuzingizda ajib nur.
Menimcha, har kuningiz,
Juda o'tadi masrur

O'quvchi:

Serquyoshdir vatanim,
Qalbimiz quyoshdan-da ilikdir,
SHuning uchun har kunimiz
Boshlanadi qushikdan.
O'zbekiston davlat madhiyasi ijro etiladi.

Mehmon:

Yurtingiz O'zbekiston Juda guzal bu makon.
Davlatigingiz ramzlari, Ne bildirar qadrdon?
Xalqim, orzu niyati Dilga quvonch soladi.

O'quvchi:

Bayrog'imiz dunyo uzra, Yurtga dovrug' soladi.
Bayrokdagi to'rt xil rang, hamohangdir birlikda.
Bir-birini to'ldirib, Maqsad sari tenglikda.

O'quvchi:

Xavo rang – tinchlik demak,
Oq rangdir-poklik ramzi
Yashil- yashnagay el
Qizil rang-xayot ramzi,
Yulduzlari doimo sirli,
Ma'nolarni so'zlaydi.
O'n ikki - bu o'n ikki oy,
Tarixdan so'zlaydi

Yangi chiqqan to'lin oy,
har kuzni o'zga chorlar
Duoga ochamiz ko'l
Dilga nur, poklik solar.

Mehmon:

Bayroshngiz dunyo bo'ylab,
Xilpirasin, dovrug' solsin.
Yurt maqsadi, oruzi,
O'sib kamolga yetsin.

O'quvchi:

To'g'rimizda orzu,
Aks etgandir, biling siz,
Humo qushi yetaklar,
Maqsad sari biling siz.

Paxta bug'doy chambari
To'kinlik, to'kin ramzi.
Quyosh, yulduz, suv tog'lar
Yashnagan yurt timsoli

Mehmon:

So'zlaringiz tilimizni,
Ko'nglimizni chog' qildi
Yurtingizga mehringiz,
Bizni xayron lol qildi.

O'quvchi:

Yurtni sevmog' bizlarga
Payg'ambardan merosdir.
Temir bobom ug'itlari
Durlar ichra olmosdir
Nomi dunyoda mashhur,
Bobolarim bor mening,
Ulug'bek, Sino, Bobur
Navoiy - jonim mening.
SHoirlarim so'zlaydi,
Vatan madhini a'lo
Ko'ngillarning madhida
Mustaqillik bebaho

SHu yerda o'quvchilar shoirlarning ona-Vatanni, ulushovchi she'rlardan,
qo'shikdardan va raqslardan Vatan haqida maqol, xadislar o'qiydilar.

Mehmon:

Samo uzra kemamiz,
Yul kezib qanot qokdi.
Yurt, odamlar ichra suzib,
CHin dildan bizga yokdi.

O'quvchi:

Sizlar xali biz bilan,
Ko'p suhbat ko'rmadingiz,
Yurtim bo'stonlarida,
Sayr qilib yurmadingiz.

SHundan so'ng o'quvchilar saxnada davra aylanib, qo'llaridagi O'zbekistonning noz-ne'matlarini, gullarini namoyish qiladi. Ularni tavsif etadilar.

O'quvchi:

Poklik, okdikni paxta,
Xalqim dilidan olgan.
SHuning-chun paxta Qadri,
Oltindan ortiq bo'lgan.

Hamma o'quvchilar:

Qancha aytsak shuncha oz.
O'zbekiston madhini,
Ko'nglimiz to'k zo'r ishonch,
«Vatan -barchamizniki»!

SHu yerda fazoviy kemandagi chirokdari yonib, shu'la socha boshlaydi.

Mehmon: Ey, aziz insonlar, baxtlisiz doim, shunday yurt, shunday el
ichrasiz doim sizni sururingizdan, ko'nglimiz to'ldi. Ona - yurtga mehringizdan,
serquyosh yurtingizdan, quvvat olib ketamiz, uchishga tayyor bo'ldi.

Mehmonlar:

Xayrlashamiz! Qolar omad siz bilan,
Yashnasin el! Qolar iymon siz bilan

O'quvchilar:

Biz o'zbeklar mehmonlarni ulug' ko'ramiz,
Erga tashrifingizni qutlug' bilamiz,
«Oq yo'l» deymiz ko'ksimizda qo'limiz.
Mehmonlarga doim ochiq uyimiz.

O'qituvchining xotima so'zlari bilan ertalik yakunlanadi:

*Akd boylik bergan bilan kamaymas,
Vatan madhin aytgan bilan tugamas.
«Sog'lom avlod» o'zligini xor qilmas,
El-yurtin ulushagan aslo kam bo'lmas!*

Rahmat, o'quvchilar! Elu yurtimiz baxtiga doimo sog'-salomat bo'linglar.

Boshlangich sinflarda bu kabi ertaliklarni o'tkazib borish o'quvchilarda
ona - Vatanga mehr-muxabbat, undan faxrlanish tuyg'usini orttiradi.

XULOSA

O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p milltli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi.

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. SHu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan. CHunonchi, Hadisi SHarifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi.

Inson o'zi tug'ilib o'sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o'ziga yaqin bo'lgan kishilar davrasida bo'ladi, o'zi ko'nikkan turmush tarzi bo'yicha kun kechiradi, bolalikdan o'zi ko'nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so'zlashadi va u shu muhitdagina o'zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o'ziga tanish bo'lgan, o'zi ko'nikkan muhitni topa olmaydi. SHu bois garchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga safar uyushtirgan bo'lsa-da, o'z yurtini tezda sog'inadi.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “,
“Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori “– Toshkent. Sharq,
1997 y.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat “,
Toshkent. O‘zbekiston 1992 y.
3. Inomova K.M. “Oilada bolalarning ma’naviy–axloqiy tarbiyasi
“Toshkent. Fan. 1999 y.
4. Musurmonova O. “Oila ma’naviyat –milliy “urur “. T. 1999.
5. Munavvarov A.K. “Oila pedagogikasi “. T. O‘qituvchi. 1994.
6. Jo‘raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. T. O‘qituvchi. 1994.
7. Baratov Sh. O‘qituvchi shaxsini o‘rganish usullari. T. 1995 y.
8. Tursunova O. Oilada bola tarbiyasi. T. 1995.
9. Hasanbaeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T. 1996.
10. B. Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi (metodik qo‘llanma). T. 2006